

VOLUME II | ISSUE 2 | FEBRUARY

# Journal of Culture and Art

КУЛТУРА И ИСКУССТВО  
МАДАНИЈАТ ВА САНЃАТ

| 2024

ISSN: 2181-4562



Available online at [www.imfaktor.com](http://www.imfaktor.com)

 **IMFAKTOR**  
*Science driven pages*

ISSN: 2181-4562  
DOI Journal 10.56017/2181-4562

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 2-СОҢ

## ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР-2

## JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE-2

ТОШКЕНТ – 2024

# МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2024-2>

## БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал  
Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

## МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол  
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик  
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

## ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим  
Козимович  
Ходжаметова Гулчира  
Илишевна

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни  
ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор  
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус  
филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих  
фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов  
Фахриддин  
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари  
бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз  
Турабович  
Умаров Мамур  
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна  
нутқи” кафедраси доценти

Худоев Ғани  
Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
“Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси  
профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Бердиханова Шахида  
Нурлыбаевна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
“Чолғу ижрочилиги ва мусиқа назарияси” кафедраси  
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича  
фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон  
Раимқулович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати  
институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси”  
кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича  
фалсафа доктори (PhD)

Суннатиллаев Асатилло  
Суннатович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта  
ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Алланбаев Рудакий  
Оринбаевич  
Зиявутдинова Зулфия  
Усеиновна  
Раимова Дилфузахон  
Махаммадсолиевна  
Ботирова Хилола  
Турсунбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати  
институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-  
педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил  
изланувчи (PhD)

Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист, “Шуҳрат”  
медали соҳиби, профессор в.в.б

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

*“Маданият ва санъат” журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.7 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга.*

*Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.***

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: [www.imfaktor.uz/com](http://www.imfaktor.uz/com)

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти , 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2023 йил.

# МАДАНИЯТ ВА САЊЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

**BABADJANOVA Luiza Xisamutdinovna***Andijon ixtisoslashtirilgan san'at maktabi**o'qituvchisi*<https://doi.org/10.5281/zenodo.10648460>

## FORTEPIANO IJROCHILIGIDA TA'LIM OLUVCHILARNING MUSIQIY RIVOJLANISH IMKONIYATLARI

### ANNOTATSIYA

Fortepiano ijrosi o'zining boy musiqiy hisobiga tembr-dinamik eshitish qobiliyatini rivojlantiruvchi keng imkoniyatlarga ega. Ustoz bilan bir qatorda shogird ham turli xil tembr va dinamik bo'yoqlarni, shtrix effektlarini izlab, orkestrning alohida guruhlariga xos yangrash xususiyatlarini, ohangdorlik xususiyatlarini ifodalashga harakat qiladi. Mazkur maqolada "Fortepiano" fani vositasida talabalarni madaniy, ma'naviy, estetik jihatdan o'stirish va yo'naltirish asosida uni o'z sohasining serqirra mutaxassisi qilib shakllantirish, shuningdek, fortepiano darslarida ta'lim oluvchilarning musiqiy-eshitish qobiliyati, ritmik hissiyot, xotira, harakat ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ijrochilik, mahorat, polifoniya, musiqiy obraz, jo'rnavozlik, garmonik rivojlanish, qobiliyat, musiqa tinglash, ko'povozlik, ritm.

## ВОЗМОЖНОСТИ МУЗЫКАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ОБУЧАЮЩИХСЯ ИГРЕ НА ФОРТЕПИАНО

### АННОТАЦИЯ

Фортепианное исполнение за счет богатого музыкального сопровождения обладает широкими возможностями развития темброво-динамического слуха. Наряду с мастером, ученик ищет различные тембровые и динамические краски, штриховые эффекты, старается выразить особенности звучания, особенности мелодичности, присущие отдельным группам оркестра. В данной статье освещаются вопросы культурного, духовного, эстетического развития и ориентации учащихся на занятиях по предмету "фортепиано", становления его плодовитым специалистом в своей области, а также развития музыкально-слуховых, ритмических чувств, памяти, двигательных навыков обучающихся на уроках игры на фортепиано.

**Ключевые слова:** исполнение, мастерство, полифония, музыкальный образ, напевность, гармоническое развитие, одаренность, слушание музыки, многоголосие, ритм.

## THE POSSIBILITIES OF MUSICAL DEVELOPMENT OF STUDENTS PLAYING THE PIANO

### ANNOTATION

Due to the rich musical accompaniment, piano performance has wide possibilities for the development of timbre-dynamic hearing. Along with the master, the student searches for various timbre and dynamic colors, stroke effects, tries to express the peculiarities of sound, the peculiarities of melody inherent in individual groups of the orchestra. This article highlights the issues of cultural, spiritual, aesthetic development and orientation of students in the classroom on the subject of “piano”, becoming a prolific specialist in his field, as well as the development of musical-auditory, rhythmic senses, memory, motor skills of students in piano lessons.

**Keywords:** performance, mastery, polyphony, musical image, melodiousness, harmonic development, giftedness, listening to music, polyphony, rhythms.

“Fortepiano” fani o‘quvchilarni madaniy, ma’naviy, mafkuraviy shakllangan, milliy o‘zligi, tili, diniy e’tiqodi, qadriyatlarini, an’ana va urf-odatlariga sodiq komil inson sifatida tarbiyalash, shuningdek, oliy ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlash mazmunini takomillashtirishni talab etadi. Shuning uchun ham bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi shaxsini kasbiy rivojlantirish zaminida, estetik jihatdan o‘stirish va yo‘naltirish asosida uni o‘z sohasining serqirra mutaxassisi qilib shakllantirish hamda “Davlat ta’lim standartlari” talablari darajasida nazariy bilim va amaliy malakalarini tarkib toptirish muammolari yotadi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining musiqiy tayyorgarliklarini oshirish, ularning nazariy bilim va amaliy malakalar ko‘lamini yanada boyitish zaruriyatini vujudga keltiradi. Zero, yosh avlodga ta’lim va tarbiya berish, ko‘p jihatdan bo‘lajak o‘qituvchilarning nazariy va amaliy tayyorgarliklariga bog‘liq. Bu esa o‘z o‘rnida repertuarni to‘g‘ri tanlash va bu orqali talabalarda ijro texnikasini o‘stirish kabi, kompozitorlik ijodini to‘liq bilish talab etilmoqda.

Yosh musiqachi o‘quvchilarning keyingi ijodiy rivojlanishida fortepiano cholg‘u ijrochiligi muhim o‘rin egallaydi. Forteplano cholg‘u ijrochiligi musiqachi ijodiy faoliyatining asosiy mezon bo‘lib qoladi. Chunki har bir sozanda o‘z asari ustida ishlar ekan albatta unga cho‘lg‘u va ansambllarda ijro etish uchun kasbiy mahoratning turli xildagi musiqiy ijrosi talab etiladi.

Fortepiano fanining maqsadi ta’lim oluvchilarni cholg‘uning tembri, tuzilishi, sozlanishi, dia’azoni, badiiy va texnik imkoniyatlari, rang-barang ijro uslublari haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishga qaratilgan. Forteplanning amaliy qo‘llanilishi oliy ta’lim muassasasining barcha pog‘onalarida o‘qitilish jarayonida ijrochi bilimining mukammallashib borishida va uning keyingi kasbiy faoliyatida tutgan o‘rni ushbu fanning naqadar muhim ahamiyatga egaligidan dalolat beradi. Forteplanning fanini o‘zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar esa - talabalar turli yo‘nalishlardagi bilimlarga ega bo‘lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir [1, 2].

Fortepiano fani bo‘yicha talaba polifonik asarlar, ko‘povozlik ta’limi, yirik shakldagi asarlarda shakl hissi, keng hajmlilik va musiqiy obrazlarning qarama-qarshiligi borasidagi tushuncha va tasavvurlarga ega bo‘lishi lozim. Talabalarni kompozitorlik ijodining ahamiyatli masalalari va nazariy musiqashunoslikning asosiy muammolari bilan yaqindan tanishtirish hamda musiqiy til tizimi va unda muhim o‘rin egallagan garmoniya haqida aniq tushunchalar berish. Shuningdek, talabalarni musiqiy asar shaklining tuzilishidagi asosiy qonuniyatlari, muhim musiqa elementlari, musiqiy rivojlanish printsiplari, shakldagi qismlar funktsiyasi bilan tanishtirish, ularda turli xil musiqiy shakllarni tahlil qilish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish talabalarning musiqiy fikrlash, musiqiy eshitish, sof intonatsiyalash qobiliyatini shakllantirish, musiqiy xotira, lad, ritm va uslub tuyg‘usini tarbiyalash va rivojlantirish hamda orttirgan bilim va ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llay olishga o‘rgatishdir. Barcha ko‘nikmalarni bosqichma bosqich egallab borishda albatta texnika juda kata ahamiyatga egadir.

O'zbekiston fortepiano maktabi bugungi kunda respublikamizning iftixor bilan e'tirof etadigan san'atlaridan bo'lib, keng ijodiy imkoniyatlarni, hamda fortepiano uchun yaratilgan ajoyib musiqiy adabiyotlarini o'zida qamrab oladi.

Fortepiano kursida o'rganiluvchi ansambl, jo'rnavozlik, transpozitsiya tarzidagi ijro turlari talabalarning umumiy va musiqiy iste'dodlarini rivojlanishida birlamchi omil sifatida xizmat qiladi (ijodiy ta'assurot, ichki eshitish qobiliyati, eslab qolish qobiliyati, garmonik va polifonik tafakkur, ritm hissi va boshqalar).

Fortepiano ijrosi kompozitor-talabalarning butun o'quv va ijodiy jarayonida davom ettiriladi. Cholg'uda amaliy ishlarsiz musiqiy-nazariy bilimlarni to'liq egallash mumkin emas. Bular, solfedjio, garmoniya, polifoniya, musiqiy asarlar tahlili, musiqa tarixi, partitura o'qish va hokazo. Fortepiano kursi mutaxassislik fani bilan uzviy bog'liq bo'lib, shu sababli ahamiyati salmoqlidir. Shunday qilib, fortepiano cholg'usida musiqa bo'yicha amaliy ishlar bajarilishi bilan bir qatorda o'quv rejasiga kiritilgan aksariyat musiqiy fanlardan uy vazifalar ham tayyorlanadi.

Fortepiano musiqasi janrlarini o'rganish musiqiy ta'limning barcha bosqichlaridagi dolzarb masaladir.

Fortepiano ijro etish shakli hamma davrlarda mavjud bo'lgan bo'lib, sozandalar o'z ijro mahoratining barcha bosqichlarida ushbu faoliyat bilan shug'ullangan. Bu holat bugungi kunda ham kuzatiladi. Fortepiano ijrosining foydasi nimada? Qaysi sabablariga ko'ra u o'quvchining umummusiqiy rivojiga turtki bera oladi?

Fortepiano ijrosi musiqiy adabiyot bilan keng va har tomonlama tanishuv uchun eng yaxshi imkoniyatlarni yaratadi. Bunda musiqachi turli badiiy uslub va tarixiy davrlarga oid asarlarni o'rganadi. Shuningdek, ijrochi fortepiano uchun yozilgan asarlar polifoniyalar, etyudlar, sonatinalar va pyesalar bilan chuqurroq tanishishadi. Boshqacha qilib aytganda, fortepiano ijrosi - musiqiy tasavvurning doimiy yangilanib turishi, boy va turli xarakterdagi musiqiy axborotning oqib kelishini ta'minlaydigan faoliyat turidir [3].

Yangi va turli-tuman tasavvurning kirib kelishini ta'minlab, musiqaga nisbatan musiqiy salohiyatning markazi va hissiy munosabatning taraqqiy etishiga omil bo'lib xizmat qiladi. Tinglash natijasida qo'lga kiritilgan ko'plab yorqin tasavvurlarning jamlanishi badiiy xayolning rivojlanishiga turtki beradi. Hissiy to'liqlanishning avjida musiqiy-aqliy harakatning umumiy ko'tarilishi yuzaga keladi.

Fortepiano cholg'u ijrochiligi avvalombor notani varaqdan o'qish malakasining rivojlanganligini, shuningdek yaxshi tinglash qobiliyatiga ega bo'lishlikni talab etadi. Unda o'qituvchi va o'quvchilarga kichik hajmdagi, murakkab bo'lmagan asarlar taklif etilib, ushbu materiallar orqali cholg'u ijrochiligi malakasini muvaffaqiyat bilan egallash mumkin bo'ladi. O'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi kabi turli xildagi fortepiano ansambllari tanlab olinib, ular ijrochilar partiyalarining turli xildagi murakkabligi bilan birga bir xildagi murakkabliklardan tashkil topgan.

Fortepiano cholg'u ijrochiligi uchun yaratilgan musiqiy adabiyotlarni muhim jihati shundaki, ularning ushbu ijrochilik turidagi keng ko'lamligi va o'qituvchining musiqiy materiallar, ijrochilik vositalari (texnika, applikatura, nyuansirovka, ijrochilik usullari va shtrixlar) ustida ishlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Fortepiano ijrosi o'quvchining boshqa xususiyatlarining ham rivojlanishiga olib keladi: musiqiy eshitish qobiliyati, ritmik hissiyot, xotira, harakat ko'nikmalari. Ushbu xususiyatlarning rivojlanishi musiqiy faoliyatning boshqa turlarida ham zarurdir. Bular – musiqa tinglash, musiqiy-nazariy fanlarni o'rganish, musiqiy materialni mustaqil ravishda tanlash. Ohang tasavvurining shakllanishi - o'quvchining eshitish qobiliyatini tarbiyalashning birinchi bosqichidir.

Musiqiy eshitish qobiliyati tembr va dinamikaga ko'ra tembr-dinamik eshitish deb ataladi. Ushbu eshitish qobiliyati musiqiy amaliyotning barcha turlarida, shuningdek, musiqiy ijrochilikda muhim o'rin tutadi

Garmonik eshitish qobiliyatini rivojlantiruvchi eng kuchli vosita – turli kuylarga garmonik joʻrlik qilishdir. Bunda garmonik joʻrlik ustoz tomonidan amalga oshiriladi. Bu esa oʻquvchiga ilk qadamdan oʻq koʻp ovozli musiqaning ijrosida qatnashish imkoniyatini beradi. Garmonik eshitish qobiliyatining rivoji melodik eshitish qobiliyatining rivoji bilan bir xil olib boriladi. Soʻnggi yillarda yuzaga kelayotgan musiqiy tarbiyaviy ishlar natijasida kichik yoshdagi oʻquvchilarning qulogʻini murakkab garmonik tuzilmalarga oʻrgatish misollarini ham koʻrish mumkin [4].

Polifonik eshitish qobiliyatini rivojlantirish – musiqiy tarbiyaning eng murakkab qismlaridan biridir. Zero, talabalar polifonik asarlarni ijro etish, bir vaqtning oʻzida bir necha melodik yoʻllarni tinglash koʻnikmasiga ega emas. Bunda ansambl ijrosi chogʻida polifonik asarning ovozlarini juft-juft qilib chalish tavsiya etiladi. Shu ansambl ijrosi ilk mashgʻulotlardan oʻq polifoniyani tinglash, uning tarkibiy qismlariga quloq solish, ohangning alohida qurilmalarini yorqinroq ifodalash koʻnikmasini beradi.

Umuman olganda, fortepiano ijrosi oʻzining boy musiqiy hisobiga tembr-dinamik eshitish qobiliyatini rivojlantiruvchi keng imkoniyatlarga ega. Ustoz bilan bir qatorda shogird ham turli xil tembr va dinamik boʻyoqlarni, shtrix effektlarini izlab, orkestrning alohida guruhlariga xos yangrash xususiyatlarini, ohangdor tutti xususiyatlarini ifodalashga harakat qiladi.

Fortepiano ijrosi ritmik his etish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Ritm – musiqaning markaziy unsurlaridan biridir. Ritm hissining shakllanishi – musiqiy pedagogikaning muhim vazifalaridandir. Musiqadagi ritm - nafaqat vaqt-oʻlchovli, balki, hissiy-ifodaviy, obrazli-sheʼriy, badiiy-mazmunli kategoriyadir.

**ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES.**

1. Д.Хайитбоева. Нотани варақдан ўқиш ва Фортепиано ансамбли. – Т, «Ўзбекистон», 2010-136-б.
2. Ш.Закирова. Произведения композиторов Узбекистана для Фортепиано.– Т., «Ўзбекистон». 2010-228-б.
3. Д.Ю Ташпулатова. Работа над этюдами Г. Мушеля в фортепианном классе. – Т. «Ўзбекистан». 2011-85-б.
4. Николаев А. Школа игры на фортепиано. –М., 2004.

ISSN: 2181-4562  
DOI Journal 10.56017/2181-4562

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 2-СОН

## ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР-2

## JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE-2

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

Веб-сайт: [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)